«MEBEL XAVFSIZLIGI TO‘G‘RISIDA»GI TEXNIK REGLAMENT MILLIY NORMALARINI XALQARO STANDARTLARGA UYG‘UNLASHTIRISH HAQIDA

О ГАРМОНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ НОРМ ТЕХНИЧЕСКОГО РЕГЛАМЕНТА «О БЕЗОПАСНОСТИ МЕБЕЛИ» С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ

HARMONIZATION OF UZBEKISTAN’S TECHNICAL REGULATION “ON FURNITURE SAFETY” WITH INTERNATIONAL STANDARDS

***Dilshod Masudxodjayevich Xodjikariyev**, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi texnik jihatdan tartibga solish boshqarma boshlig’i*
***Maxmud G‘ofurjonovich Xamroqulov**, Toshkent kimyo-texnologiya instituti dotsent, PhD*
***Zaynab Sunnat qizi Sayfullayeva**, Toshkent kimyo-texnologiya instituti assistent, PhD*
***Gafurjan Xamrakulov**, Toshkent kimyo-texnologiya instituti professor, kimyo fanlari doktori*

https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol2.iss5.2023.222

Annotatsiya. *Tadqiqotda O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga (YeOII) ehtimoliy qo‘shilishining yengil (mebel) sanoatda YeOIIning texnik reglamentlarini qabul qilish orqali mamlakat eksportiga ta’sirining tahlili keltirilgan. O‘zbekiston mintaqaviy hamkorlik va integratsiya sohasidagi o‘zining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq sanoat mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilmoqda va kengaytirmoqda. Bu, o‘z navbatida, texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro amaliyotni o‘rganishni taqozo etadi. Tadqiqotda yengil (mebel) sanoati sohasidagi amaldagi qonunchilik o‘rganiladi.*

Аннотация. *В исследовании представлен анализ последствий потенциального присоединения Узбекистана к Евразийскому экономическому союзу (ЕАЭС) на экспорт страны путем принятия технических регламентов ЕАЭС в легкой (мебельной) промышленности. В соответствии со своими приоритетами в области регионального сотрудничества и интеграции Узбекистан диверсифицирует и расширяет экспорт промышленной продукции. Это в свою очередь требует изучения международной практики а области технического регулирования. В исследовании рассматривается действующее законодательство в области легкой (мебельной) промышленности.*

Annotation. *The study presents an analysis of the consequences of Uzbekistan's potential accession to the Eurasian Economic Union (EAEU) on the country's exports through the adoption of EAEU technical regulations in the light (furniture) industry. In accordance with its priorities in the field of regional cooperation and integration, Uzbekistan is diversifying and expanding its exports of industrial products. This, in turn, requires studying international practice in the field of technical regulation. The study examines the current legislation in the field of light (furniture) industry.*

Kalit so’zlar: *mebel, texnik reglament, xalqaro standartlar, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Jahon savdo tashkiloti.*

Ключевые слова: *мебель, технический регламент, международные стандарты, Евразийский экономический союз, Всемирная торговая организация.*

Keywords: *furniture, technical regulations, international standards, Eurasian Economic Union, World Trade Organization.*

KIRISH

Savdodagi texnik to‘siqlar O‘zbekiston tomonidan savdo siyosatida o‘zining ustuvor yo‘nalishlariga erishishiga ta’sir qiladi. Bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a’zo bo‘lishga tayyorlanmoqda[1]. U savdodagi to‘siqlarni bartaraf etish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish uchun milliy normalarni xalqaro standartlar va amaliyotga uyg‘unlashtirishni kafolatlaydi, bunda mahsulotlar inson salomatligi, atrof-muhit uchun xavfsiz bo‘lishini va iste’molchilar manfaatlari chalg‘ituvchi markirovkalashdan himoya qilinishini ta’minlaydi. O‘zbekiston YeOIIga a’zo bo‘lgan taqdirda nafaqat texnik reglamentlar bo‘yicha muayyan majburiyatlarni, balki muvofiqlikni baholash, akkreditatsiya qilish va YeOIIga a’zo davlatlarning texnik talablarida uyg‘unlik mavjud emasligi tufayli YeOII doirasida bozorga kirish yo‘lidagi ayrim to‘siqlarni ham o‘z zimmasiga olishiga to‘g‘ri keladi.

USLUBIYAT

Tadqiqotda YeOII va O‘zbekistonning yengil (mebel) sanoat uchun texnik reglamentlar tizimlarini tahlil qilishning normativ, tavsifiy va qiyosiy usullari qo‘llanildi. Tadqiqotda texnik reglament(TR)lar, standartlar, muvofiqlikni baholash, akkreditatsiya qilish, bozorni inspeksiya qilish va nazorat qilish tartib-taomillarini qabul qilish bo‘yicha normativ baza solishtirildi. Solishtirish mezonlari quyidagilardan iborat:

I. Qo‘llanilish sohasi;
II. Muvofiqlikni baholash shakli;
III. Bozor ustidan nazorat qilish va inspeksiya qilish;
IV. Sinash usullari;
V. Zarur laboratoriya asbob-uskunalari;
VI. Xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish darajasi.

Tarmoq sinov laboratoriyalarini kompleks o‘rganish, texnik ko‘mak hajmini hisobga olgan holda, muvofiqlikni tasdiqlash maqsadida sinov usullarini bajarish uchun zarur laboratoriya infratuzilmasi va imkoniyatlari mavjudligini baholash, mahalliy sanoatning potensialini va muvofiqlik darajasini baholash, YeOII TRga muvofiq tanlab olingan sinov laboratoriyasi sifatida Texnik jihatdan tartibga solish agentligi (TTA) huzuridagi «O‘zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi» (UzTest) davlat korxonasidagi laboratoriya imkoniyatlarini solishtirish bilan cheklandi.

O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish rejalari nuqtai nazaridan, tadqiqotda YeOII va O‘zbekiston TRlarining xalqaro standartlarga uyg‘unligi darajasi hamda JSTning Savdodagi texnik to‘siq (STT)lar to‘g‘risidagi bitimiga muvofiqlik darajasi ham baholandi. Tadqiqot xulosasida xalqaro standartlarga muvofiq ichki islohotlarni amalga oshirish va YeOII to‘g‘risidagi ehtimoliy muzokaralar chog‘ida O‘zbekiston pozisiyasini mustahkamlash bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgan.

YeOII texnik reglamentlarida xalqaro standartlar – YeIning mahsulot xavfsizligi bo‘yicha hadli direktivalariga uyg‘unlik darajasi O‘zbekistondagiga nisbatan ancha yuqori. Uyg‘unlashtirish O‘zbekistonga foyda keltiradi. Biroq YeOIIning texnik jihatdan tartibga solish tizimi bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lib, yengil sanoat bo‘yicha YeOII texnik reglamentlari to‘liq qabul qilingan taqdirda, O‘zbekiston bularni ham o‘z zimmasiga olishiga to‘g‘ri keladi. Siyosiy qarorlar qabul qilish va variantlarni tanlashda ehtiyotkorona yondashuvni qo‘llash hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki har bir texnik reglament ortida mahalliy tarmoq va bozorga kirish bilan bog‘liq ehtimoliy xavf-xatarlar mavjud. Bundan tashqari, texnik jihatdan tartibga solish bo‘yicha siyosiy qarorlar tarif siyosatidan ajratilgan holda qabul qilinishi mumkin emas. Ijtimoiy manfaatlar va savdo imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanatni chamalab ko‘rish lozim.

O‘zbekistonning yengil (mebel) sanoatga oid amaldagi, hatto yaqinda YeOII texnik reglamentlari asosida qabul qilingan texnik reglamentlari muvofiqlikni baholash bo‘yicha ustuvor mexanizm sifatida sertifikatlashni nazarda tutadi, YeOII TRlarida esa aksariyat texnik reglamentlar uchun deklaratsiyalash muvofiqlikni baholashning ustun sxemasi hisoblanadi. Shu tariqa, YeOIIga ehtimoliy qo‘shilish natijasida YeOII TRning qabul qilinishi O‘zbekistondan muvofiqlikni baholash shakli sifatida deklaratsiyalashga rioya etilishini ta’minlash uchun mustahkam normativ-huquqiy

bazani yaratishni talab qiladi. Bu biznes-operatorlar – ishlab chiqaruvchilar, import qiluvchilar va sotuvchilarning mahsulot xavfsizligi uchun birlamchi javobgarligi ta'minlanishiga sabab bo‘ladi. Bu boradagi birinchi qadam «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi bo‘ldi [2].

Deklaratsiyalashda samarali huquqni qo‘llash bo‘yicha tartibga soluvchi davlat organlari tomonidan bozorni nazorat qilish va tekshirishning ishonchli tizimi mavjudligini ham nazarda tutadi. Bu esa O‘zbekistonda hali yetarli va lozim darajada emas. Yangi «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonunda, boshqalar qatori, davlat inspektorlari vakolatlari bilan bozorni nazorat qilish mexanizmlari qoidalari; mahsulotni olib qo‘yish va chaqirib olish qoidalari, nazorat mezonlariga, huquqbuzarliklar turlariga va rioya qilmaganlik uchun samarali va tiyib turuvchi javobgarlik choralariga oid qoidalar va hokazolar hisobga olinadi. Qonunchilik va amaliyotdagi bunday muhim samarali huquqiy elementlarsiz O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solishning samarali tizimini yarata olmaydi[3].

YeOII texnik reglamentlariga rioya qilish laboratoriya infratuzilmasi va mahalliy mutaxassislarning malakasini oshirishga sezilarli darajada investisiya kiritishni talab qiladi. Ushbu investisiyalarning sezilarli qismi sifatga doir ortiqcha talablar yoki avvalgi eskirgan standartlarga sarflanishi kerak. YeOIIning aksariyat standartlari Rossiya Federatsiyasining (RF) milliy standartlari hisoblanishini inobatga olgan holda, RFning sanoat ustuvorliklari va standartlari mahalliy sanoatda ustunlik qilishi ko‘zda tutiladi. Bunday istiqbollar bozorga chiqish imkoniyatlarini va O‘zbekistonning nooziq-ovqat tovarlarini YeOIIdan boshqa bozorlarga eksport qilish istiqbollarini pasaytiradi. Sinash usullaridagi tafovutlar sinash natijalari bo‘yicha nizolarga olib keladi, bu esa bozorga kirishni cheklash va hatto import qilishni taqiqlashga olib kelishi mumkin.

Bir vaqtning o‘zida shuni ta'kidlash lozimki, YeOIIning ayrim texnik reglamentlari YeI direktivalariga maksimal darajada uyg‘unlashtirilgan, shu bois hatto YeOII doirasida ham bunday texnik reglamentlarning kuchga kirishi kechiktirilgan, chunki YeOIIga a'zo mamlakatlarning mahalliy tarmoqlari hali moslashish jarayonida va bunday yuqori talablarga muvofiq bo‘lishga tayyor emas.

YeOIIning 025/202-son «Mebel mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risida»gi texnik reglamenti 126 ta namunaviy standart hamda sinash usullari, namuna olish va kalibrlash/o‘lchash usullari bilan 89 ta standartga ega bo‘lib, ulardan 22 tasi ISO va 16 tasi EN standartlari hisoblanadi. Unda muvofiqlikni baholash shakli sifatida asosan deklaratsiyalash belgilangan, bundan sertifikatlash sxemalari qo‘llaniladigan bolalar mebeli mustasno.

Mebel xavfsizligi bo‘yicha YeOII TR hech qanday ekologik talablarni yoki shartlarni o‘z ichiga olmaydi, ularga ko‘ra esa mebel uchun material sifatida ishlatiladigan yog‘och/o‘simliklar o‘rmonlarning kesilishiga olib kelmasligi kerak. Mebelda ishlatiladigan kimyoviy moddalarga kelsak, YeOII TRda barcha kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish va ularning muomalasini, shu jumladan ularni majburiy ro‘yxatdan o‘tkazishni (REACH YeI) tartibga soluvchi muqobil direktivalar yoki reglamentlar nazarda tutilmagan. O‘zbekiston uchun mebelga doir YeOII TRning qabul qilinishi oqibatlari sinov infratuzilmasiga investisiya kiritishni o‘z ichiga oladi, chunki zarur asbob-uskunalarning katta qismi mavjud emas.

Bugungi kunda O‘zbekistonda mebel mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash bilan bog‘liq bir qator muammolarni hal qilish uchun Umumiy texnik reglament ishlab chiqilmoqda[4].

Umumiy texnik reglament mebelning quyidagi turlariga nisbatan talablarni belgilaydi (jadval).

Jadval

Mebel mahsulotlari ro‘yxati

T/r	Mahsulotlar nomi
1.	Foydalanish maqsadiga ko‘ra maishiy va jamoat xonalari uchun mebel
1.1.	Laboratoriya mebellari, tibbiyot laboratoriyasi mebellari bundan mustasno

1.2.	O‘quv yurtlari uchun mebel
1.3.	Maktabgacha muassasalar uchun mebel
1.4.	Savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari uchun mebel
1.5.	Mehmonxonalar, shifoxonalar va yotoqxonalar uchun mebel
1.6.	Teatr-tomosha korxonalari va madaniyat muassasalari uchun mebel
1.7.	Ma’muriy xonalar uchun mebel
1.8.	Vokzallar, moliya muassasalari va aloqa korxonalari uchun mebel
1.9.	Kitob savdosi xonalari uchun mebellar (stellajlar, tokchalar, javonlar, stollar)
1.10.	Kema xonalari uchun mebellar (kayutalar, kayuta-kompaniyalar, suzish ko‘prikchasi, markaziy boshqaruv posti, dam olish xonalari, oshxona, ambulatoriya)
2.	Funksional maqsadiga ko‘ra maishiy va jamoat xonalari uchun mebel
2.1.	Stollar (ovqatlanish, yozuv, pardoz, jurnal, kompyuter stollari, tele-, radio-, videoapparaturalar, telefonlar, ayvon va dahliz uchun stollar va boshqa buyumlar)
2.2.	Stullar, kreslolar, banketkalar, taburetkalar, o‘rindiqlar, yumshoq o‘rindiqchalar, divanlar, kushetkalar, suyanchiqsiz divanlar, kreslo-karavotlar, divan-karavotlar
2.3.	Karavotlar
2.4.	Matraslar
2.5.	Javonlar, tagkursilar, stellajlar, sekreterlar, komodlar, toshoynalar, trelyajlar va boshqa buyumlar (sandiqlar, etajerkalar, pardalar, tagliklar, ilgaklar, qutilar, tokchalar va boshqa buyumlar)
2.6.	Bolalar mebeli (stollar, stullar, karavotlar, manejlar, o‘yinchoqlar uchun qutilar, kreslolar, divanlar, javonlar, tagkursilar, taburetkalar, o‘rindiqlar, matraslar, divan-karavotlar va boshqa buyumlar)

2023 yil 27 fevralda qabul qilingan O‘RQ-819-son «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonunga asosan O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi. Ushbu Qonunga muvofiq ishlab chiqilayotgan umumiy texnik reglamentlar quyidagi maqsadlarda qabul qilinadi:

- mahsulot xavfsizligiga qo‘yiladigan talablarni belgilash orqali fuqarolarning hayoti yoki sog‘lig‘ini muhofaza qilish;
- atrof-muhitni, hayvonot va o‘simlik dunyosini muhofaza qilish;
- xaridorlarni (iste’molchilarni) chalg‘ituvchi harakatlarning oldini olish;
- energiya jihatdan samaradorlikni va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash;
- savdodagi texnik to‘siqlarni bartaraf etish;
- ichki va tashqi bozorda mahsulotning raqobatbardoshliligini oshirish.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘zbekiston «Mebel xavfsizligi to‘g‘risida»gi 025/202-son YeOII TRni qabul qilishga qaror qilgan taqdirda ekologik maqsadlarga e’tibor qaratish, ya’ni mebel tayyorlash uchun ishlatiladigan yog‘och materiallarini kuzatish bo‘yicha YeI yondashuvini qabul qilish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston iqlim va atrof-muhitning keskin o‘zgarishlariga, shu jumladan, shahar va qishloqlarda (tog‘li hududlarda ham) daraxtlarning ommaviy va nazoratsiz kesilishi tufayli, duch kelmoqda. Mebel bo‘yicha TRga YeIning kuzatuvchanlik bo‘yicha talablariga (o‘rmonlarni kesishni kamaytirishga qaratilgan) o‘xshash qoidalarni kiritish yoki ishlatilayotgan yog‘och materialining kelib chiqishini kuzatish tavsiya etiladi. Bunda tijorat maqsadlarida daraxtlarni kesish taqiqlanadigan «muhofaza zonalari»ni joriy etish lozim. Ushbu kuzatish mexanizmi daraxtlarni noqonuniy kesishga qarshi kurashda foydali vosita bo‘ladi.

ВВЕДЕНИЕ

Технические барьеры в торговле влияют на достижения Узбекистаном своих приоритетов в торговой политике. Одновременно, Узбекистан готовится к вступлению во Всемирную торговую организацию (ВТО)[1]. Он гарантирует гармонизацию национальных норм с международными стандартами и практикой для устранения барьеров в торговле и стимулирования инноваций, обеспечивая при этом безопасность продукции для здоровья человека, окружающей среды и защиту интересов потребителей от вводящей в заблуждение маркировки. В случае вступления в ЕАЭС Узбекистану придется взять на себя не только конкретные обязательства по техническим регламентам, но и взять на себя часть барьеров, препятствующих доступу на рынок в рамках ЕАЭС из-за отсутствия гармонизации в оценке соответствия, аккредитации и технических требований государств-членов ЕАЭС.

МЕТОДОЛОГИЯ

В исследовании применены нормативный, описательный и сравнительный методы анализа систем технических регламентов ЕАЭС и Узбекистана легкой (мебельной) промышленности. В исследовании сравнивалась нормативная база для принятия технических регламентов (ТР), стандартов, процедур оценки соответствия, аккредитации, инспектирования и надзора за рынком. Критерии сравнения следующие:

I. Сфера применения;
II. Форма оценки соответствия;
III. Надзор за рынком и инспектирование;
IV. Методы тестирования;
V. Необходимое лабораторное оборудование
VI. Уровень гармонизации с международными стандартами

Учитывая объем технической помощи, проведение комплексного обследования отраслевых испытательных лабораторий ограничилось оценкой потенциала и уровня соответствия отечественной промышленности для оценки наличия необходимой лабораторной инфраструктуры и возможностей для выполнения методов испытаний для подтверждения соответствия отобранным ТР ЕАЭС сравнением лабораторного потенциала на примере Государственного предприятия «Узбекский центр научных испытаний и контроля качества» (UzTest) при Агентстве технического регулирования (АТР) в качестве испытательной лаборатории.

В свете планов Узбекистана по вступлению в ВТО в исследовании также оценивался уровень гармонизации ТР ЕАЭС и Узбекистана с международными стандартами и уровень соответствия Соглашению ВТО о технических барьерах в торговле (ТБТ). В заключении исследования представлены конкретные рекомендации по проведению внутренних реформ в соответствии с международными стандартами и укреплению позиции Узбекистана в ходе потенциальных переговоров о ЕАЭС.

Уровень гармонизации с международными стандартами — рамочными директивами ЕС по безопасности продукции — в технических регламентах ЕАЭС значительно выше, чем в Узбекистане. Гармонизация пойдет на пользу Узбекистану. Однако существуют проблемы, связанные с системой технического регулирования ЕАЭС, которые также придется взять на себя Узбекистану, если Технические регламенты ЕАЭС по легкой промышленности будут приняты в полном объеме. Применение осторожного подхода имеет решающее значение при принятии политических решений и выборе вариантов, поскольку за каждым техническим регламентом стоит потенциальная отечественная отрасль и риски, связанные с доступом на рынки. Кроме того, политические решения по техническому регулированию не могут приниматься в отрыве от тарифной политики. Необходимо взвешивание баланса между общественными интересами и торговыми возможностями.

Действующие технические регламенты Узбекистана по легкой (мебельной) промышленности, даже недавно принятые на основе технических регламентов ЕАЭС,

предусматривают сертификацию в качестве преобладающего механизма по оценке соответствия, тогда как в ТР ЕАЭС декларирование является доминирующей схемой оценки соответствия для большинства технических регламентов. Таким образом, принятие ТР ЕАЭС в результате возможного присоединения к ЕАЭС потребует от Узбекистана создания прочной нормативно-правовой базы для обеспечения соблюдения декларирования как формы оценки соответствия. Это влечет за собой обеспечение первичной ответственности бизнес-операторов — производителей, импортеров и продавцов — за безопасность продукции. Первым этом на пути этого служило принятие закона «О техническом регулировании» [2].

Эффективное правоприменение при декларировании также предполагает наличие надежной системы надзора за рынком и проверок со стороны государственных регулирующих органов, что также пока отсутствует в Узбекистане в достаточном и надлежащем виде. В новом Законе о Техническом регулировании учитываются, кроме прочего, положения по механизмам надзора за рынком с полномочиями государственных инспекторов; положения об изъятии и отзыве продукции; положения с критериями надзора, видами нарушений, и эффективным и сдерживающим мерам ответственности за несоблюдение и т.д. Без таких ключевых эффективных правовых элементов в законодательстве и практике Узбекистан не сможет создать эффективную систему технического регулирования[3].

Соблюдение технических регламентов ЕАЭС потребует значительных инвестиций в лабораторную инфраструктуру и повышение квалификации местных специалистов. Значительная часть таких инвестиций должна быть потрачена на излишне чрезмерные требования к качеству или устаревшие стандарты. Учитывая, что большинство стандартов ЕАЭС являются национальными стандартами Российской Федерации (РФ), предполагается, что в отечественной промышленности будут доминировать промышленные приоритеты и стандарты РФ. Такие перспективы снижают шансы на доступ к рынку и перспективы экспорта непродовольственных товаров Узбекистана на другие рынки кроме ЕАЭС. Расхождения в методах тестирования приведут к спорам по поводу результатов тестирования, что может привести к ограничению доступа к рынку и даже к запрету на импорт.

Одновременно, следует отметить, что некоторые Технические регламенты ЕАЭС максимально гармонизированы с директивами ЕС, так что даже в рамках ЕАЭС вступление в силу таких технических регламентов отложено, поскольку отечественные отрасли стран членов ЕАЭС еще находятся в процессе адаптации и не готовы соответствовать такой высокой планке.

Технический регламент ЕАЭС 025/202 «О безопасности мебельной продукции имеет 126 эталонных стандартов и 89 стандартов с методами тестирования, отбора проб и калибровки/измерения, из которых 22 являются стандартами ISO и 16 стандартами EN. Он предписывает в основном декларирование как форму оценки соответствия, за исключением детской мебели, которая подлежит схемам сертификации.

ТР ЕАЭС по безопасности мебели не содержит каких-либо экологических требований или условий, согласно которым древесина/растения, используемые в качестве материала для мебели, не должны приводить к вырубке леса. Что касается химических веществ, используемых в мебели, то в ТР ЕАЭС не предусмотрены альтернативные директивы или регламенты, регулирующие производство и оборот всех химических веществ, включая их обязательную регистрацию (REACH ЕС). типа. Последствия для Узбекистана от принятия ТР ЕАЭС на мебель будут включать инвестиции в испытательную инфраструктуру, так как большая часть необходимого оборудования отсутствует.

На сегодняшней день в Узбекистане для решения ряда проблем связанных с обеспечением безопасностью мебельной продукции разрабатывается Общий технический регламент[4].

Общий технический регламент устанавливает требование в отношении следующих видов мебели (табл).

Таблица

Перечень мебельной продукции

№	Наименование продукции
1.	Мебель бытовая и для общественных помещений по эксплуатационному назначению
1.1	Мебель лабораторная, за исключением мебели медицинской лаборатории
1.2.	Мебель для учебных заведений
1.3.	Мебель для дошкольных учреждений
1.4.	Мебель для предприятий торговли, общественного питания и бытового обслуживания
1.5.	Мебель для гостиниц, здравниц и общежитий
1.6.	Мебель для театрально-зрелищных предприятий и учреждений культуры
1.7.	Мебель для административных помещений
1.8.	Мебель для вокзалов, финансовых учреждений и предприятий связи
1.9.	Мебель для книготорговых помещений (стеллажи, полки, шкафы, столы)
1.10.	Мебель для судовых помещений (кают, кают-компаний, ходового мостика, центрального поста управления, помещений для отдыха, столовой, амбулатории)
2.	Мебель бытовая и для общественных помещений по функциональному назначению
2.1.	Столы (обеденные, письменные, туалетные, журнальные, компьютерные, столы для теле-, радио, видеоаппаратуры, для телефонов, для террас и прихожих и другие изделия)
2.2.	Стулья, кресла, банкетки, табуреты, скамьи, пуфы, диваны, кушетки, тахты, кресла-кровати, диван-кровати
2.3.	Кровати
2.4.	Матрацы
2.5.	Шкафы, тумбы, стеллажи, секретеры, комоды, трюмо, трельяжи и прочие изделия (сундуки, этажерки, ширмы, подставки, вешалки, ящики, полки и другие изделия)
2.6.	Мебель детская (столы, стулья, кровати, манежи, ящики для игрушек, кресла, диваны, шкафы, тумбы, табуреты, скамьи, матрацы, диван-кровати и другие изделия)

Согласно принятому Закону «О техническом регулировании» ЗРУ №819 от 27.02.2023 года Узбекское агентство по техническому регулированию является специально уполномоченным государственным органом в области технического регулирования. Разрабатываемые общие технические регламенты согласно этому закону принимаются в целях:

- охраны жизни или здоровья граждан путем установления требований безопасности продукции;
- охраны окружающей среды, животного и растительного мира;
- предупреждения действий, вводящих в заблуждение покупателей (потребителей);
- обеспечения энергетической эффективности и рационального использования природных ресурсов;
- предотвращения технических барьеров в торговле;
- повышения конкурентоспособности продукции на внутреннем и внешнем рынках.

ВЫВОДЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ

В случае принятия Узбекистаном решения о принятии ТР ЕАЭС 025/202 «О безопасности мебели» целесообразно сосредоточиться на экологических целях, т.е. принять подход ЕС по прослеживаемости древесных материалов, используемых для изготовления мебели. Узбекистан сталкивается с резкими изменениями климата и окружающей среды, в том числе из-за массовой и неконтролируемой вырубки деревьев как в городских, так и в сельских (в том числе горных) районах. Было бы целесообразно либо включить в ТР по мебели положения, аналогичные требованиям ЕС по прослеживаемости (направленные на сокращение вырубки лесов), либо проследить происхождение используемого деревянного материала. При этом ввести «охранные зоны», где рубка деревьев в коммерческих целях будет запрещена. Этот механизм отслеживания станет полезным инструментом для борьбы с незаконной вырубкой деревьев.

INTRODUCTION

Proposed research provides an analysis of the possible implications for Uzbekistan's furniture industry's exports from joining the Eurasian Economic Union (EAEU) by adopting technical regulation of the EAEU on furniture. Uzbekistan aims to diversify its exports of industrial and agricultural products by expanding regional and international integration. Technical barriers to trade, however, may hinder Uzbeksitan's efforts to achieve its trade policy objectives in this regard. Uzbekistan is also in the process of accession to the World Trade Organization (WTO)[1]. Uzbekistan will have to ensures that national technical regulations would be harmonized with international standards and practices to remove barriers to trade and stimulate innovation, while ensuring that products are safe for human health, the environment and protecting consumers from misleading labeling. In case Uzbekistan joins the EAEU first, Uzbekistan will have to undertake not only specific obligations under EAEU technical regulations, but also assume some of the barriers to market access within the EAEU due to the lack of harmonization in conformity assessment procedures, accreditation and technical requirements of the EAEU member states..

METHODOLOGY

The methodology applied in the research include normative, descriptive and comparative methods of analysis of the systems of technical regulations of the EAEU and Uzbekistan on furniture. The research compares the regulatory framework for the adoption of technical regulations (TR), standards, conformity assessment procedures, accreditation, inspection and market surveillance. The comparison criteria are as follows:

VII. Scope of application;
VIII. Conformity Assessment procedures;
IX. Market surveillance and inspection;
X. Testing methods;
XI. Required laboratory equipment
XII. Level of harmonization with international standards

The assessment of existing laboratory infrastructure was conducted for performing test methods to confirm compliance with the selected EAEU TRs by comparing laboratory potential of the testing laboratory of the State Enterprise "Uzbek Center for Scientific Testing and quality control" (UzTest) under the Technical Regulation Agency (ATR).

In light of Uzbekistan's plans to join the WTO, the study also assessed the level of harmonization of the EAEU and Uzbekistan TRs with international standards and the level of compliance with the WTO Agreement on Technical Barriers to Trade (TBT). The study concludes with specific recommendations for carrying out domestic reforms in accordance with international standards and strengthening Uzbekistan's position during potential negotiations on the EAEU.

Although the level of harmonization of the EAEU technical regulation with the EU framework directives on product safety is significantly higher than in Uzbekistan's technical regulations, s there

are still problems associated with the EAEU technical regulation system, which Uzbekistan will also have to assume if the EAEU Technical Regulations for light industry (including furniture) are fully adopted in Uzbekistan. Taking a cautious approach is critical when making policy decisions and options, as behind every technical regulation there are potential domestic industry and market access risks. In addition, political decisions on technical regulation cannot be made in isolation from tariff policy. The balance between public interests and trading opportunities needs to be weighed.

The current technical regulations of Uzbekistan for the light (furniture) industry, even those that are recently adopted on the basis of the technical regulations of the EAEU, provide for certification of end products (form of conformity assessment by the third party) as the predominant mechanism for conformity assessment, while in the EAEU TR, declaration (form of conformity assessment conducted by the first party) is the dominant conformity assessment scheme for most technical regulations. Thus, the adoption of the EAEU TR that could follow the accession to the EAEU will require Uzbekistan to create a strong regulatory framework to ensure compliance with the declaration as a form of conformity assessment. This entails ensuring that business operators—manufacturers, importers and distributors—have primary responsibility for product safety. The first step towards this was the adoption of the law “On Technical Regulation” [2].

Effective enforcement of declaration as the most appropriate form of conformity assessment procedures, requires a reliable and effective system of market surveillance and inspections by government regulatory authorities, which is also not yet available in sufficient and proper form in Uzbekistan. The new Law on Technical Regulation takes into account, among other things, provisions for market surveillance mechanisms with the powers of state inspectors; product withdrawal and recall provisions; provisions with supervision criteria, types of violations, and effective and dissuasive penalties for non-compliance, etc. Without such key effective legal elements in legislation and practice, Uzbekistan will not be able to create an effective system of technical regulation[3].

Compliance with EAEU technical regulations will require significant investments in laboratory infrastructure and advanced training of local expertise. In case the certification remains as a key conformity procedure form, substantial part of such investments would have to be spent on unnecessarily excessive quality control requirements or outdated FSU (former soviet union) standards. Considering that most EAEU standards are national standards of the Russian Federation (RF), it is assumed that the industrial priorities and standards of the Russian Federation will dominate the domestic industry. Such prospects reduce the chances of market access and the prospects for exporting industrial products of Uzbekistan to markets other than the EAEU. Discrepancies in testing methods will lead to disputes over test results, which could lead to restricted market access and even import bans.

It should be noted, nevertheless, that some of the EAEU technical regulations have been substantially harmonized with EU directives, but their entry into force within the EAEU has been postponed, since the domestic industries of the EAEU member states are still in the process of adaptation and are not ready to meet such shifts in liabilities over product safety.

Technical Regulation of the EAEU 025/202 “On the safety of furniture products” has 126 reference standards and 89 standards with testing, sampling and calibration/measurement methods, of which 22 are ISO standards and 16 EN standards . It prescribes mainly declaration as a form of conformity assessment, with the exception of children's furniture, which is subject to third party conformity assessment schemes.

The EAEU TR on furniture safety does not contain any environmental requirements or conditions according to which wood/plants used as furniture material should not lead to deforestation. As for chemicals used in furniture, the EAEU TR does not provide for alternative directives or regulations governing the production and circulation of all chemicals , including their mandatory registration (EU REACH). type. The consequences for Uzbekistan of adopting the EAEU TR on

furniture will include bringing new investments in testing infrastructure, since most of the necessary equipment is not available at the moment.

Uzbekistan is in the process of development of new technical regulation on general product safety aimed at ensuring the safety of furniture products. [4].

The General Technical Regulations establish requirements for the following types of furniture (table).

Table

Scroll furniture products

No.	Name products
1.	Furniture for household and public premises according to operational purpose
1.1	Laboratory furniture, with the exception of medical laboratory furniture
1.2.	Furniture For educational establishments
1.3.	Furniture For preschool institutions
1.4.	Furniture for trade, catering and consumer services
1.5.	Furniture for hotels, health resorts and hostels
1.6.	Furniture for theatrical and entertainment enterprises and cultural institutions
1.7.	Furniture For administrative premises
1.8.	Furniture for stations, financial institutions and communications enterprises
1.9.	Furniture for bookstores (racks, shelves, cabinets, tables)
1.10.	Furniture for ship premises (cabins, wardrooms, navigation bridge, central control station, recreation areas, dining room, outpatient clinic)
2.	Furniture for household and public premises by functional purpose
2.1.	Tables (dining, writing, dressing, coffee, computer, tables for television, radio, video equipment, telephones, for terraces and hallways and other products)
2.2.	Chairs, armchairs, banquettes, stools, benches, poufs, sofas, couches, ottomans, chair-beds, sofa beds
2.3.	Beds
2.4.	Mattresses
2.5.	Cabinets, cabinets, shelving, secretaries, chests of drawers, dressing table, trellises and other products (chests, shelves, screens, stands, hangers, drawers, shelves and other products)
2.6.	Children's furniture (tables, chairs, beds, playpens, toy boxes, armchairs, sofas, cabinets, cabinets, stools, benches, mattresses, sofa beds and other products)

According to the adopted Law “On Technical Regulation” ZRU No. 819 dated February 27, 2023, the Uzbek Agency for Technical Regulation is a specially authorized state body in the field of technical regulation. The general technical regulations being developed in accordance with this law are adopted for the purposes of:

- protecting the life or health of citizens by establishing product safety requirements;
- protection of the environment, animal and plant life;
- prevention of actions that mislead buyers (consumers);
- ensuring energy efficiency and rational use of natural resources;
- preventing technical barriers to trade;
- increasing the competitiveness of products in the domestic and foreign markets.

CONCLUSIONS AND RECOMMENDATIONS

1. If Uzbekistan adopts EAEU TR 025/202 “On the safety of furniture,” it is advisable to focus on environmental goals, i.e. adopt the EU approach to the traceability of wood materials used for furniture. Uzbekistan is facing dramatic climate and environmental changes, including due to

massive and uncontrolled cutting of trees in both urban and rural (including mountainous) areas. It would be advisable to either include provisions similar to EU traceability requirements (aimed at reducing deforestation) in the furniture PR, or to trace the origin of the wood material used. At the same time, introduce “protected zones” where cutting down trees for commercial purposes will be prohibited. This tracking mechanism will be a useful tool to combat illegal tree felling.

References

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.

2. Bojxona ittifoqining «Mebel xavfsizligi to‘g‘risida»gi texnik reglamenti (TR TS 025/2012)

3. D.M. Xodjikariyev, M.G. Xamrakulov, Z.S. Sayfullayeva, G.X. Xamrakulov. O‘zbekiston Respublikasida raqobatbardosh mebel sanoatini rivojlantirish istiqbollari. «Tovarlar kimyosi va xalq tabobati muammolari va istiqbollari» nomli X xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Andijon, 2023, 121-122-b.

4. D.M. Xodjikariyev, M.G. Xamrakulov, Z.S. Sayfullayeva, G.X. Xamrakulov. O‘zbekistonda YeOII texnik reglamentlarini qabul qilish va qo‘llashning ehtimoliy oqibatlari. «Tovarlar kimyosi va xalq tabobati muammolari va istiqbollari» nomli X xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Andijon, 2023, 97-98-b.

Author Biographies

Dilshod M. Khodjikariev*, Technical regulatory agency of Uzbekistan*
Head of Technical Regulation Department
Maxmud G. Khamrokulov*, Tashkent chemical-technological Institute*
associate professor, Ph.D
Zaynab S. Sayfullaeva*, Tashkent chemical-technological Institute*
assistant, Ph.D
Gafurjan Khamrakulov*, Tashkent chemical-technological Institute*
Professor, Doctor of Chemical Sciences